



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyozov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

**QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV FAOLIYATI
SAMARADORLIGINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI ARXITEKTURASI**

**АРХИТЕКТУРА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
ПО УПРАВЛЕНИЮ ИННОВАЦИЯМИ НА СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

**ARCHITECTURE OF PERFORMANCE ASSESSMENT INDICATORS FOR
INNOVATION MANAGEMENT ACTIVITIES AT CONSTRUCTION COMPANIES**

Mamajonova Nodiraxon Alisher qizi
Andijon davlat texnika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi asoslangan. Samaradorlikni baholash - bu faoliyat natijalari va ularning sarflangan resurslarga nisbatan samarasini o‘lchash usullari to‘plami ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. innovatsion boshqaruv samaradorligi, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, moliyaviy, mehnat, intellektual, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish.

Статья основана на архитектуре показателей оценки эффективности деятельности по управлению инновациями на строительных предприятиях. Оценка эффективности – это совокупность методов измерения результатов деятельности и ее результативности по отношению к затраченным ресурсам.

Ключевые слова: эффективность управления инновациями, планирование, координация, финансовые, трудовые, интеллектуальные, снижение производственных издержек.

This article is based on the architecture of performance assessment indicators for innovation management activities at construction companies. Performance assessment is a set of methods for measuring the results of an activity and its effectiveness in relation to the resources expended.

Keywords: innovation management effectiveness, planning, coordination, financial, labor, intellectual, and cost reduction.

Innovatsion boshqaruv samaradorligi — bu korxonada yoki tashkilotda innovatsion faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish jarayonlarining natijadorligi bo‘lib, u mavjud resurslardan (moliyaviy, mehnat, intellektual, vaqt) oqilona foydalanish orqali yuqori iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik natijalarga erishishni ifodalaydi. Innovatsion boshqaruv samaradorligi quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi [3]. Bular: yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish va joriy etish tezligi; innovatsion loyihalarning iqtisodiy foydaliligi; bozorda raqobatbardoshlikning oshishi; korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va boshqalar.

Bulardan tashqari boshqacha aytadigan bo‘lsak, innovatsion boshqaruv samaradorligi – asosan innovatsiyalarni to‘g‘ri boshqarish natijasida olinadigan umumiy foyda bilan sarflangan xarajatlar o‘rtasidagi nisbatni bildiradi. Samaradorlikning iqtisodiy mazmuni ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarida sarflangan resurslar bilan olingan natijalar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Bu iqtisodiy tizimning qanchalik tejankor va maqsadga muvofiq faoliyat yuritayotganini ko‘rsatib turadi [1]. Shu sababli eng avvalo iqtisodiy samaradorlikni quyidagi asosiy jihatlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish; mehnat unumdorligini oshirish; mahsulot tannarxini pasaytirish; foyda, daromad va rentabellikni oshirish.

Iqtisodiy mazmunda samaradorlik doimo “natija/xarajat” nisbati orqali baholanadi. Agar kamroq resurs sarflab, ko‘proq iqtisodiy natijaga erishilsa, faoliyat samarali hisoblanadi. Innovatsion

faoliyat samaradorligi an’anaviy ishlab chiqarish samaradorligidan qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu o‘ziga xosliklar quyidagilarda namoyon bo‘ladi [2]: Yuqori tavakkalchilik асосида innovatsiya har doim noaniqlik bilan bog‘liq bo‘lib, uning iqtisodiy natijasi oldindan aniq ma’lum bo‘lmasligi mumkin. Natijalarning kechiktirilishi innovatsion loyihalar ko‘pincha uzoq muddatda samara beradi. Samaradorlikni baholashning murakkabligi асосан innovatsion samara faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy, texnologik va ekologik natijalarni ham o‘z ichiga oladi. Raqobatbardoshlikka ta’siri esa innovatsion faoliyat samaradorligi korxonaning bozordagi mavqeyini mustahkamlab, uning strategik ustunligini ta’minlaydi. Shu sababli innovatsion faoliyat samaradorligi nafaqat qisqa muddatli foyda, balki korxonaning kelajak rivojlanish imkoniyatlari bilan ham baholanadi.

Samaradorlikni baholash — bu faoliyat natijalari va ularning sarflangan resurslarga nisbatan samarasini o‘lchash usullari to‘plami. Ilmiy adabiyotlarda bu masala turli nigohlardan tahlil qilingan. Ularni ikki asosiy guruhga bo‘lish mumkin [4]:

An’anaviy iqtisodiy baholash usullari — klassik iqtisodiy nazariya asosida tashkil etilgan, iqtisodiy samaradorlikni aniq raqamli ko‘rsatkichlar orqali baholash.

1.1. Moliyaviy ko‘rsatkichlar usuli. Ushbu usul asosan xarajat va foyda munosabatlariga tayanib samaradorlikni baholaydi. Milton Fridman va boshqalar ta’kidlashicha, “samaradorlik — bu iqtisodiy foyda uchun sarflangan har bir birlik resurs natijasiga qancha ta’sir qilganini ko‘rsatadi. O‘tkazilgan investitsiyalar qaytarilishi biznesning rejali rivojlanishini ta’minlaydi. Bu usul biznesda standart iqtisodiy samaradorlikni tez va aniq baholash uchun foydalidir.

1.2. Produktivlik va unumdorlik usuli. Bu usulda samaradorlik mahsulot hajmi bilan uni yaratish uchun sarflangan resurslar (mehnat, kapital va boshqalar) nisbatida baholanadi. Bu qo‘yidagicha aniqlanadi [6]:

$$\text{Samaradorlik} = \text{Natija} / \text{Resurslar}$$

Ushbu usul bo‘yicha olimlarning fikrlari Adam Smit va Fridrik Vinslou Teylor ta’kidlaganidek, “mehnat unumdorligi va resurslarning oqilona taqsimlanishi- iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirishning asosidir”. Qisqa muddatli iqtisodiy samaradorlikni ko‘rsatadi, ammo innovatsiya loyihalarni to‘liq baholash uchun kamchiliklari bor [5].

1.3. Qaytarish (ROI) va rentabellik usullari. Return on Investment (ROI) — investitsiya sarflangan mablag‘ qancha foyda berganini ko‘rsatadi. Rentabellik (Profitability)-foйда/sarmoya yoki foyda/hajm ko‘rinishida baho beradi. Bu usul bo‘yicha Y.Beyker va boshqa iqtisodchi olimlar fikricha “ROI ni biznes loyihalarni soliqdan oldin baholashda muhimdir. Ammo innovatsiya uchun bu umumiy iqtisodiy samaradorlikni to‘liq aks ettirmaydi” degan fikrlar bildirilgan. Innovatsiya uchun an’anaviy usullarning cheklanganligi. Ammo innovatsiya — bu faqat iqtisodiy natijalar emas, balki yozilmagan, yangicha, kichik va katta ta’sirli o‘zgarishlardir. Shu bois ularning samaradorligini baholashda quyidagi chegaralar paydo bo‘ladi.

Tavakkalchilik va noaniqlikni hisobga olmaslik, ya’ni an’anaviy usullar odatda: natijani oldindan belgilangan foyda bilan cheklaydi, muvaffaqiyatsiz loyihalarni yo‘qotish sifatida ko‘radi. Shu sababli bu usulni ilmiy nuqtai nazardan Y. Shumpeter ta’kidlaganidek, “innovatsiya — bu tartibsizlik va yangilikdir. Uning natijasi oldindan aniq bo‘lmasligi, resursning iqtisodiy samaradorligini baholashni murakkablashtiradi [7].

Ijtimoiy va ekologik ta’sirlar nazardan chetda qoladi an’anaviy usullar faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni innovatsiyaga bog‘laganimizda quyidagilarga bo‘linadi: ijtimoiy ta’sirlar (muhitni yaxshilash, xizmat sifatining oshishi); ekologik samaradorlik; intellektual kapitalni oshirish kabi natijalarni ham beradi.

Yuqoridagi fikrlarga П. Дрыкер “innovatsiya samaradorligini baholashda faqat iqtisodiydir deb hisoblamaydi: u ijtimoiy va strategik qurilishni ham hisobga olgan holda baholanishi kerak deb ta’kidlaydi” [8]. Uzoq muddatli samaradorlikni inobatga olmaslik, ya’ni an’anaviy usullar ko‘pincha qisqa muddatli natijalarga asoslanadi. Ammo innovatsiyalarning barcha natijalari: 3-5 yildan keyin aks etadi; bozorda yangi standart yaratadi; raqobat ustunligini ta’minlaydi. Bu berilgan muddatlar asosida Maykl Porter quyidagicha fikrni bildirgan, “ya’ni strategik innovatsiyalar korxonaning raqobat qudranishini ancha yillar davomida saqlaydi. Shu sababli samaradorlikni baholashda vaqt omili muhimdir” [7].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda an’anaviy iqtisodiy usullarda samaradorlikni iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali baholaydigan bo‘lsa, innovatsiyada cheklanganlik noaniqlik, strategik ta’sirlarni hisobga olmaydi. Qisqa muddatda aniq natija, uzoq muddatda asosiy natija orqali amalga oshiradi deb aytilgan. Shuningdek, strategik qarashlar asosida cheklangan, keng va kompleks holda amalga oshirilishi asoslangan.

Qurilish korxonalarini faoliyatining samaradorligini baholashda bir qator iqtisodiy va tashkiliy ko‘rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mezonlar korxonaning bozor sharoitida raqobatbardoshligini, resurslardan oqilona foydalanish darajasini hamda loyihalarni sifatli amalga oshirish imkoniyatini aniqlashga xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini ta’minlashda samaradorlik mezonlarini to‘g‘ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Samaradorlik korxonaning mavjud resurslardan qay darajada oqilona foydalanib, belgilangan maqsadlarga erishayotganini aks ettiradi. Qurilish sohasining o‘ziga xos xususiyatlari — ishlab chiqarish jarayonining uzoq muddatligi, katta hajmdagi sarmoyalar va yuqori tavakkalchilik — samaradorlikni baholashga kompleks yondashuvni talab qiladi. Qurilish korxonalarini samaradorligini baholashda ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar darajasi, mehnat unumdorligi va loyiha muddatlari kabi asosiy mezonlar qo‘llaniladi [9].

1. Ishlab chiqarish hajmi qurilish korxonasi faoliyatining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U muayyan davr mobaynida bajarilgan qurilish-montaj ishlarining qiymati yoki fizik hajmini aks ettiradi. Ishlab chiqarish hajmining oshishi korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanayotganini, bozordagi talabga mos ravishda faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sishi korxonada daromadlarining ortishiga, investitsiyaviy jozibadorligining yuksalishiga xizmat qiladi.

2. Xarajatlar qurilish ishlarini amalga oshirish jarayonida sarflanadigan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar yig‘indisidir. Samaradorlikni ta’minlashda xarajatlarni optimallashtirish muhim hisoblanadi. Qurilish materiallari, texnikadan foydalanish, ishchi kuchi hamda boshqaruv xarajatlarini kamaytirish orqali ishlab chiqarishning tannarxini pasaytirish mumkin. Xarajatlar ustidan samarali nazorat olib borish korxonaning foydasini oshirishga va moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi [4].

3. Mehnat unumdorligi ishchilarning ma’lum vaqt ichida bajarayotgan ish hajmini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, qurilish korxonalarini samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Mehnat unumdorligining oshishi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish, ishchilar malakasini oshirish hamda rag‘batlantirish tizimini joriy etish bilan bog‘liq. Mehnat unumdorligi qurilish korxonalarini samaradorligini baholashda muhim ijtimoiy-iqtisodiy mezon hisoblanadi. U bir ishchi yoki jamoa tomonidan ma’lum vaqt ichida bajarilgan ish hajmini ifodalaydi. Mehnat unumdorligining oshishi ish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish, ishchilar malakasini oshirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq. Yuqori mehnat unumdorligi qurilish ishlarining sifatli va tez bajarilishini ta’minlab, umumiy xarajatlarni kamaytiradi.

4. Loyiha muddatlari qurilish obyektlarini belgilangan vaqtda topshirish darajasini ko‘rsatadi. Qurilish ishlarining o‘z vaqtida yakunlanishi buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomalarning bajarilishi, qo‘shimcha xarajatlarning oldini olish va korxonada obro‘sini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, qurilish korxonalarini uchun samaradorlik mezonlarini kompleks ravishda baholash korxonaning iqtisodiy holatini to‘g‘ri aniqlash, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar, mehnat unumdorligi va loyiha muddatlari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilingandagina qurilish korxonasi faoliyatining haqiqiy samaradorligi namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Rivojlanish Dasturi (UNDP) (2023). O‘zbekistonda qurilish va uy-joy sektorlarining yashil kelajagi. (Onlayn matbuot relizi)undp.orgundp.org
2. Балабенко Е.В., Бородацкая А.В., Брайла Н.В. (2024) Методика оценки строительного комплекса: корпоративный уровень. *π-Economy*, 17 (1), 113–125. DOI: <https://doi.org/10.18721/JE.17108>

3. Болотин, С. А. Организация строительного производства — М.: Издательский центр «Академия», 2007. — 208 с.
4. Гурьянов А.О., Курлов А.В., Кораблева О.Н. Управление инновациями в строительной отрасли на основе онтологической модели. *Экономика и управление*. 2022;28(12):1269-1277. <https://doi.org/10.35854/1998-1627-2022-12-1269-1277>
5. O‘zbekiston Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda O‘zsanoatqurilishbank Matbuot Relizi (2023). Qurilish materiallari sanoatida sifat va nazoratga oid xalqaro standartlar joriy qilingan.sqb.uz
6. Otamurodov Sh.N., Farmonova M.N. (2023). Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi muammolari. *Iqtisodiyot va ta’lim*, 3-son. pdfs. semanticscholar.org
7. Qodirov S.I. (2023). Qurilish sanoati korxonalarini faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalalari. *Ijtimoiy-gumanitar fanlar dolzarb muammolari*, 3(6): 109 114.grafiati.com
8. Qodirov S.I. (2025). Qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari. *Muhandislik va Iqtisodiyot*, 3(5): 5 10.zenodo.org
9. Хрусталеv, Б. Б. Экономика, организация и управление предприятиями строительного комплекса. -Пенза: ПГУАС, 2006. -224 с.

UDK:336

KRIPTOVALYUTAGA SOLIQ SOLISHDA JAHON TAJIRABASI VA MUAMMOLAR
ГЛОБАЛЬНЫЙ ОПЫТ И ПРОБЛЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ КРИПТОВАЛЮТ
GLOBAL EXPERIENCE AND CHALLENGES IN CRYPTOCURRENCY TAXATION

Ahmadkulov Dilshod Rakhmonali o‘gli - “University of Business and science” universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrası Professori E-mail: d.akhmadkulov@ubsu.uz
OrcidID:0009-0005-6763-6702

Olimjon Xamrayev Yaxshiboyevich - Toshkent xalqaro universiteti, “Iqtisod va moliya” kafedrası katta o‘qituvchisi E-mail: xolimjon@mail.ru
Orcid ID: 0000-0001-6699-4456

Ubaydullo Khattobov Botirovich - “University of Business and science” universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi E-mail: khattobovu@umail.uz
Orcid ID: 0009-0009-4675-4733

Anotatsiya

Kriptovalyutalar so‘nggi paytlarda katta e‘tibor qozondi. Kriptovalyuta tranzaksiyalari mashhurligining tez sur‘atlarda ortib borayotganini hisobga olgan holda, ushbu XXI asrning yangicha hodisasiga yagona yondashuvni qabul qilish zarur, 2009-yilda birinchi kriptovalyuta – Bitcoin yaratilganidan beri minglab boshqa kriptovalyutalar paydo bo‘ldi. Kriptovalyutalar bilan tranzaksiyalar ortgan sari, milliy va xalqaro yurisdiksiyalar bu jarayon bilan bog‘liq soliq va buxgalteriya hisobi masalalarini hal qilishga kirishdilar. Xalqaro yurisdiksiyalar va professional tashkilotlar kriptovalyutalarga nisbatan turli fikrga ega. Ayrimlar uni moliyaviy aktiv, moliyaviy instrument, naqd pul, naqd pul ekvivalentlari, zaxiralar yoki nomoddiy aktiv deb hisoblaydi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari doirasida kriptovalyutaga oid maxsus buxgalteriya standarti mavjud bo‘lmagani sababli, mavjud Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari normalariga asoslanib, prinsiplarga asoslangan yondashuvni qo‘llash zarur.